



The importance of the kalokagathia model in the personal and professional development of future primary school teachers

Dilorom ABDURAKHMONOVA¹

Uzbekistan national Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form

5 September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online

25 October 2025

Keywords:

kalokagathia qualities,
personal development,
professional formation,
"KAMOL" model,
"Kalokagathic Integration –
4D" method,
pedagogical competence,
moral and aesthetic
education,
healthy lifestyle,
modern educational
technologies

ABSTRACT

This article provides a scientific and theoretical justification for the role and practical importance of kalokagathia qualities in the personal and professional development of future primary-school teachers. It highlights the integration of the "KAMOL" model and the "Kalokagathic Integration–4D" method into the pedagogical process, their application in the modern educational environment, and their effectiveness.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss10/S-pp45-52>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy rivojlanishida kalokagatiya modelining ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

kalokagatiya fazilatlarlari,
shaxsiy rivojlanish,
kasbiy shakllanish,
"KAMOL" modeli,
"Kalokagatik Integratsiya –
4D" metodi,
pedagogik kompetensiya,
axloqiy-estetik tarbiya,
sog'lom turmush tarzi,
zamonaviy ta'lim
texnologiyalari

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy kamolotida kalokagatiya fazilatlarining tutgan o'rni, amaliy ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan. "KAMOL" modeli va "Kalokagatik Integratsiya – 4D" metodining pedagogik jarayonga integratsiyasi, zamonaviy ta'lim muhitidagi qo'llanish yo'llari hamda samaradorligi yoritilgan.

¹ Independent Researcher, Uzbekistan national Pedagogical University named after Nizami.

Значение модели калокагатии в личностном и профессиональном развитии будущих учителей начальных классов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

калокагатические качества, личностное развитие, профессиональное становление, модель «КАМОЛ», метод «Калокагатическая интеграция – 4D», педагогическая компетентность, нравственно-эстетическое воспитание, здоровый образ жизни, современные образовательные технологии

В статье научно-теоретически обосновано значение и практическая важность калокагатических качеств в личностном и профессиональном становлении будущих учителей начальных классов. Освещены интеграция модели «КАМОЛ» и метода «Калокагатическая интеграция – 4D» в педагогический процесс, пути их применения в современной образовательной среде и их эффективность.

KIRISH (Introduction)

Raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishidir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarda axloqiy, estetik va intellektual salohiyatni shakllantiruvchi yetakchi shaxsdir. Shu nuqtayi nazardan, qadimgi yunon falsafasiga oid "Kalokagatiya" tushunchasi — "go'zallik" (kalos) va "ezgulik" (agathos) uyg'unligi sifatida — pedagog shaxsining barkamolligini ta'riflaydi (qarang: [4, 54]; [5, 430]).

Ushbu konsepsiya qadimda ideal shaxs obrazini ifodalagan bo'lsa, hozirgi ta'limda u bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining jismoniy, ma'naviy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi pedagogik model sifatida e'tirof etilmoqda [6, 84]. Afsuski, amaldagi tayyorlov tizimida kalokagatik fazilatlar yetarlicha shakllanmayapti. Shu bois Kalokagatiya modelining ta'lim jarayoniga integratsiyasi ta'lim sifati va o'qituvchi salohiyatini oshirishda dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur maqolada Kalokagatiya modelining bo'lajak o'qituvchilar shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi hamda "KAMOL" modeli asosida kalokagatik fazilatlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish mexanizmi ishlab chiqiladi.

Tadqiqot savoli: Kalokagatiya modeli bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

Faraz: Agar pedagogik tayyorgarlikda Kalokagatiya modeli tizimli qo'llansa, o'qituvchilarning shaxsiy va kasbiy yetukligi uyg'un holda shakllanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot **kalit sifat yondashuv** asosida olib borildi. Uning markazida Kalokagatiya tushunchasining **tarixiy-falsafiy ildizlari, zamonaviy pedagogikadagi imkoniyatlari** va **"KAMOL" modeli** asosidagi shaxsiy-

kasbiy rivojlanish metodikasi ishlab chiqilishi turadi. Suqrot, Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Sino kabi mutafakkirlar, shuningdek Alisher Navoiy, Ahmad Yassaviy, Avloniy va Behbudiyning ma'naviy merosi konseptual asos sifatida tahlil qilindi. Zamonaviy adabiyotlardan esa Falloon (2024), Martinková (2012), Makarchuk va Goncharova (2021) kabi manbalar asos bo'ldi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi — bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatik fazilatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan zamonaviy metodik yondashuvni ishlab chiqish va takomillashtirishdir. Amaliy bosqichda esa **so'rovnomalar, yarim strukturaviy suhbatlar va monitoring** usullari orqali ma'lumotlar to'planishi rejalashtiriladi. Baholash mezonlari sifatida axloqiy poklik, estetik qarash, jismoniy salomatlik, aqliy yuksaklik va ma'naviy mas'uliyat indikatorlari belgilandi.

Tadqiqot ishtirokchilari sifatida Termiz, Samarqand va Toshkent pedagogik oliygohlarining 3–4-bosqich talabalari tanlandi. Bu bosqichda kasbiy o'zlikni anglash va shaxsiy qadriyatlar faol shakllanadi, shuning uchun ular tajriba uchun mos guruh sifatida tanlandi.

“KAMOL” modeli kalokagatiya tamoyillarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi. Modellashda besh bosqich (K–Kuzatish va kasbiy o'sish, A–Anglash va axloqiy yetuklik, M–Model asosida o'qitish va ma'naviy boylik, O–Ongli tanlov va orzu, L–Loyihalashtirish) va ularga mos monitoring vositalari ishlab chiqilgan (1-jadval).

1-jadval.

“KAMOL” modeli: bosqichlar va monitoring vositalari

Bosqich	Bosqich nomi va mazmuni	Monitoring vositalari
K	Kuzatish va kasbiy o'sish Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi, axloqiy-ma'naviy kompetensiyalari aniqlanadi. Aristotelning “fazilat odatlar orqali tarkib topadi” tamoyiliga asoslanadi.	- Kasbiy reja - O'z-o'zini baholash kartalari - Dastlabki refleksiya savolnomalari
A	Anglash va axloqiy yetuklik Kalokagatiya konsepsiyasining mohiyati, falsafiy asoslari va ta'limdagi o'rni chuqur o'rganiladi. Refleksiya orqali shaxsiy fazilatlar anglanadi.	- Aksiologik testlar - Yozma refleksiya - Motivatsion intervyular - Axloqiy kechinmalar tahlili
M	Model asosida o'qitish va ma'naviy boylik Treninglar, loyihalar orqali kalokagatik fazilatlar faoliyatda shakllantiriladi. “COGs & Virtues” modeliga integratsiyalashgan.	- Loyiha baholash mezonlari - Faoliyatga asoslangan baholash (performance-based assessment) - Portfoliolar
O	Ongli tanlov va orzu Shaxsiy fazilatlar hayotiy maqsadlar va ijtimoiy faoliyat bilan uyg'unlashtiriladi. Motivatsiya va ongli qaror qabul qilish mustahkamlanadi.	- Ma'naviy reja - Orzular xaritasi (mind map) - Motivatsion ese - Ijtimoiy loyiha kuzatuvi
L	Loyihalashtirish, liderlik va hayotiy faoliyat Mustaqil loyihalar orqali kalokagatik tarbiya amaliyotga tatbiq etiladi. Tashabbus, yetakchilik va kommunikativlik rivojlanadi.	- Liderlik testlari - Jamoaviy baholash - Loyiha monitoring jurnallari - Baholovchi rubrikalar

Ushbu jadvaldagi model nazariya, metodika va monitoringning uzviy integratsiyasiga asoslanadi. U estetik va axloqiy tarbiyani chuqurlashtiradi, sog'lom turmushni rag'batlantiradi hamda o'qituvchilarning kasbiy refleksiyasini rivojlantiradi. Diagnostika, trening, refleksiya va loyiha asosida baholash kabi usullar orqali "KAMOL" modelining samaradorligi tahlil qilinadi.

Kalokagatiya modelining asosiy komponentlari quyidagi 1-rasmda o'z ifodasini topgan:

Adabiyotlar tahlili (Literature Review). O'qituvchi shaxsining tashqi ko'rinishi, didi, estetik madaniyati va madaniy imiji ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Bu borada MDH olimlari – O.S. Bogdanova, B.T. Lixachev, I.F. Xarlamov, M.V. Drobnitskiylar o'z tadqiqotlarida estetik tarbiyani shaxsda go'zallikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni qabul qilish va namunali xulq orqali namoyon qilish jarayoni sifatida talqin qilganlar. Ular pedagog shaxsining tashqi jozibadorligi, nutq estetikasi va muomala madaniyatini ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir vositasi sifatida ko'rsatib berganlar.



1-rasm. Kalokagatiya modelining asosiy komponentlari

B. Xadjayevning "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" kitobida Kalokagatiya tushunchasi go'zallik, olijanoblik, jismoniy va ma'naviy uyg'unlik sifatida ta'riflanadi[2,399]. **N.N. Azizxo'jayeva** tomonidan yozilgan "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" qo'llanmasida talaba shaxsining rivojlanishi tavsirlari yoritilgan[3, 39-50].

Alisher Navoiy o'z asarlarida ustoz shaxsiga ma'naviy-axloqiy mezonlar asosida yondashadi. U o'qituvchidan halollik, samimiylilik, g'arazsizlik va fidoyilikni talab qilgan. Uning: *"Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa..."* deya boshlanuvchi fikrlari pedagog shaxsining axloqiy kamoloti uchun dolzarb talablardir [1,190].

Zamonaviy pedagogikada kalokagatiya g'oyasi – ya'ni ezgulik va go'zallik uyg'unligi – L.A. Bondarevskaya, V.V. Serikov, B. Adizov, M. Ibrohimova tadqiqotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim orqali yoritiladi. Ular axloqiy fazilatlar, tanlov erkinligi, ijtimoiy ong va e'tiqod orqali shaxs kamolotiga erishish yo'llarini asoslab beradilar; Sog'lom turmush

tarzi, jismoniy va ruhiy salomatlik, tashabbuskorlik va ijtimoiy faollik kabi omillar kalokagatik shaxsni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. A. Avloniy bu borada shunday deydi: *"Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog'lom bir vujud kerakdur..."* [7,5]. Bu fikr zamonaviy tadqiqotlarda – N.N. Djamilova, B. Adizov, O. Musurmonova, Sh. Shodmonova ishlarida pedagog shaxsining sog'lom turmush madaniyati bilan bog'liq holda keng yoritilgan; Didaktik jihatdan esa, kalokagatik fazilatlarning shakllanishi ta'lim mazmuni, metodlari va shakllarini belgilovchi vositalar bilan bevosita bog'liq. B.S. Abdullaeva, U.K. Tolipov, N.A. Muslimovlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy shakllanishida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv va innovatsion metodlarning ahamiyatini asoslaganlar. D. Ruziyeva va M.X. Usmonboeva estetik va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, bilish faoliyatini faollashtirish imkoniyatlariga urg'u berganlar.

Kalokagatiya tushunchasi mohiyatan G'arb va MDH olimlari tomonidan turlicha yoritilgan. Masalan, Makarchuk va Goncharova uning tarixiy shakllanish jarayonini tahlil qilgan bo'lsa, Krivoruchko va Shukatka qadimgi yunonlarning jismoniy tarbiya g'oyalari bilan bog'lagan. Sprutta va Zowislo kalokagatiyani Sokratning axloqiy tizimi bilan integratsiyada o'rganishgan. Martinkova esa bu tushunchaning zamonaviy pedagogikadagi talqinlaridagi tafovutlarga e'tibor qaratgan. Platon, Aristotel va Ksenofont asarlari asosida Evangeliou, Reid, Destrée kabi olimlar kalokagatiya mohiyatini ilmiy asosda yoritib berganlar.

Tahlil qilingan mahalliy tadqiqotlar asosida kalokagatiya modelining asosiy komponentlari (estetik tarbiya, axloqiy yetuklik, sog'lom turmush madaniyati va didaktik yondashuv) alohida-alohida yoritilganligi kuzatiladi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Kalokagatiya komponentlari bilan bog'liq mahalliy tadqiqotlar jadvali

Tadqiqotchi (yil)	Tadqiqot mavzusi	Asosiy yo'nalish	Kalokagatiya komponenti bilan bog'liqligi
Sobirova Charosxon (2020) [9]	Axloqiy-estetik tarbiya shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida	Estetik tarbiya, shaxsiy yondashuv	1
D.R. Farsaxonova (2020)	Ma'naviy-axloqiy tarbiya metodikasini takomillashtirish	Axloqiy tarbiya, metodika	Axloqiylik, didaktika
R.SH.Rahimov (2023)	Talabalarda sog'lom turmush tarsi hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	Sog'liq, ta'lim imkoniyatlari,	Sog'lom turmush, didaktika
N.M. Kenjaboyeva (2020)	Reproduktiv madaniyatni takomillashtirish tizimi	Shaxsiy madaniyat, kasbiy tayyorgarlik	Didaktika, axloqiylik
Jamolidinova	Sog'lom turmush madaniyatining shakllanishi	Sog'liq, psixologik, intellektual yetuklik	Sog'lom turmush, psixologik uyg'unlik

N. Yuldasheva (2021)	Aksiologik yondashuv asosida tayyorgarlik modeli	Qadriyatlar asosidagi pedagogik yondashuv	Ma'naviy yuksaklik, axloqiylik, did
U. Bazarova (2022)	Texnika OTM talabalarini axloqiy-estetik tarbiyalash	Estetik va axloqiy uyg'unlik	Estetika, axloqiylik, ma'naviyat

Adabiy manbalar tahlili natijasida aniqlanishicha, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy, axloqiy va estetik kamoloti masalasi turli olimlar tomonidan turli jihatlarida yoritilgan. Jumladan, D.R. Farsaxonova, Ya.A. Nurumbekova, F.O. Mirzayeva va A.A. Rahimov tadqiqotlarida asosan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, axloqiy-estetik tarbiya, ma'naviy-marifiy kompetensiya kabi jihatlar ustuvorlik qiladi. Jamolidinovaning yondashuvida sog'lom turmush tarzi madaniyati va o'qituvchining ichki barkamolligi kalokagatik komponentlar bilan bevosita bog'liq holda qaralgan. N.M. Kenjaboyeva bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun reproduktiv madaniyatni rivojlantirish yo'nalishini ilgari suradi, bu esa kalokagatiya modelining ijtimoiy va axloqiy qirralari bilan uyg'unlashadi [8, 15]. Shuningdek, Ch. Sobirova, Bo'lajak o'qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish modelini hamda shaxsni kamol toptirishda bo'lajak o'qituvchilarni A-E tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqqan[9,24]. Bu tadqiqotlar kalokagatiya komponentlarini (did, diyonat, dinamika) alohida-alohida qamrab olgani bilan ahamiyatli bo'lsa-da, ushbu fazilatlarining uzviy integratsiyasi va yaxlit pedagogik model shaklida tizimlashtirilmagan. 2-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, mavjud ilmiy tadqiqotlar kalokagatiya tushunchasining tarkibiy qismlarini alohida yo'nalishlarda ko'rib chiqqan bo'lsa-da, ularning yagona model asosida integratsiyalashuvi bo'yicha kompleks yondashuv yetarlicha rivojlanmagan. Bu holat "KAMOL" va "Kalokagatik Integratsiya-3D" kabi innovatsion metodlarni ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish zaruratini asoslab beradi.

Tahlil va natijalar qismi (Analysis and results). Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki, kalokagatiya fazilatlar — estetik did, axloqiy barqarorlik, sog'lom turmush odatlari va shaxsiy uyg'unlik — bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining shaxsiy va kasbiy shakllanishida muhim o'rin tutadi. Biroq mavjud ilmiy manbalar bu yo'nalishda bir nechta ilmiy bo'shliqlar mavjudligini ko'rsatmoqda: Kalokagatiya tushunchasining zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan integratsiyasi chuqur o'rganilmagan; Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy metodik tavsiyalar tizimlashtirilmagan; Raqamli ta'lim muhiti uchun kalokagatik yondashuvlar ishlab chiqilmagan; Baholash mezonlari va indikatorlar tizimi ishlab chiqilmagan; Modelning milliy-madaniy kontekstga moslashtirilgan variantlari yetarli ilmiy asosga ega emas. Mazkur bo'shliqlarni bartaraf etish maqsadida "KAMOL" modeli va "Kalokagatik Integratsiya – 4D" metodikasi ishlab chiqildi. Bu yondashuv orqali pedagog shaxsida axloqiy, estetik va sog'lom turmushga oid kompetensiyalar bosqichma-bosqich shakllantiriladi.

Kutilayotgan natijalar quyidagilardan iborat: Talabalarda axloqiy-estetik qadriyatlarga qiziqish ortadi; Sog'lom hayot tarziga oid amaliy ko'nikmalar shakllanadi; O'z-o'zini baholash, refleksiya va maqsadlilik rivojlanadi; Pedagogik faoliyatda estetik va didaktik uyg'unlik yondashuvlari kuchayadi. Tahlil asosida shakllangan 3-jadvalda kalokagatiya modelining zamonaviy ta'limdagi o'rni, boshlang'ich ta'limga mos metodikalar, raqamli muhitdagi tatbiqi, baholash tizimi va milliy-madaniy moslashuv yo'nalishlari hali yetarlicha ishlab chiqilmagani ko'rsatilgan.

3-jadval.

Zamonaviy ta'limdagi o'rganilmagan yo'nalishlari

Tadqiqot yetarlicha o'rganilmagan yo'nalishlar	Tavsif
Kalokagatiya modelining zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni	Kalokagatiyaning qadimiy tushuncha sifatida zamonaviy pedagogika bilan uyg'unlashuvi yetarlicha tadqiq etilmagan.
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun amaliy metodikalar	Kalokagatiya tamoyillarini boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ta'lim jarayoniga joriy etish bo'yicha aniq metodik tavsiyalar mavjud emas.
Kalokagatiyaning raqamli ta'lim muhitidagi o'rni	Kalokagatiya tamoyillarini onlayn ta'limga moslashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.
Kalokagatiya tamoyillarining baholash tizimi	O'qituvchilarning kasbiy rivojlanishida Kalokagatiya modelining samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilmagan.
Madaniy va milliy kontekstga moslashish	Turli xalqlarning an'analarga mos keluvchi Kalokagatiya modelining variantlari bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan.

Ushbu omillar Kalokagatiya modelining amaliy asosda mustahkamlanishini taqozo etadi. Shu sababli "KAMOL" modeli va "4D integratsiya" metodikasi kelgusida tajriba-sinov asosida tekshiriladi. Bu jarayon Termiz, Samarqand va Toshkentdagi 3–4 bosqich bakalavriat talabalari ishtirokida amalga oshiriladi. Tajriba davomida talabalarning estetik didi, axloqiy qarashlari, sog'lom turmush ko'nikmalari va refleksiv kompetensiyalari bosqichma-bosqich baholanadi. Natijalarga tayanib, model samaradorligi tahlil qilinadi va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kalokagatiya fazilatlarini rivojlantirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida estetik did, axloqiy barqarorlik, sog'lom turmush odatlari va ichki uyg'unlikni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Biroq mavjud adabiyotlar tahlili kalokagatiya modelining zamonaviy ta'lim texnologiyalari, raqamli muhit va baholash mezonlari bilan integratsiyasi yetarlicha o'rganilmaganini ko'rsatdi. Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqilgan **"KAMOL" modeli** va **"Kalokagatik**

Integratsiya – 4D” metodi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kalokagatiya fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tavsiyalar: Kalokagatiya fazilatlarini o'rgatuvchi **modulli o'quv dasturlarini yaratish;** O'qituvchilarning kalokagatik darajasini aniqlovchi **diagnostik mezonlar yaratish;** “KAMOL” modeli asosida **eksperimental-sinov mashg'ulotlarini o'tka-zish;** Kalokagatiya yondashuvini **milliy madaniy kontekstga moslashtirish...**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. A.Navoiy Maxbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh tomlik. 13tom, - Toshkent, Badiiy adabiyot nashriyoti, 1966.
2. Xodjaev, B. X. *Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti: Pedagogika ta'lim sohasi bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik*. Sano-standart nashriyoti. Toshkent.2017.-399b.
3. Azizxo'jayeva, N. N. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat*. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti Toshkent. 2006.-160b
4. Semushkin, A. V. (2007). Античная калокагатия как универсальная идея человека. Российский университет дружбы народов, Кафедра истории философии, факультет гуманитарных и социальных наук, (pp. 52-59).
5. **Nikityuk E.** Kalokagatiya: Qadimgi va Zamonaviy Davrda Ideal Inson Obrazini Shakllantirish Masalasiga Doir // Sankt-Peterburg Davlat Universiteti, Tarix Instituti. ORCID: 0000-0002-9915-2017. Elektron manzil: e.nikityuk@spbu.ru, nikitjuk-23@yandex.ru
6. Shukatka, O. V., & Kryvoruchko, O. V. (2023). Розвиток ідеї калокагатії у Стародавній Греції. *Педагогіка формування творчої особистості у вищій і загальноосвітній школі*.
7. **Avloniy A.** *Turkiy Guliston yoxud axloq. 2013.47 b* - www.ziyouz.com kutubxonasi.
8. N.M.Kenjaboyeva “Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining reproduktiv madaniyatini takomillashtirish tizimi” . Dis. n/d, Chirchiq. 2020.-169 b.
9. Ch.A.Sobirova. “Bo'lajak o'qituvchilarni axloqiy-estetik tarbiyalash jarayonini shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida takomillashtirish”. Dis. n/d, Urganch. 2021.-158b.